

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 2

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 2
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**2-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 2
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARNING PRAKSIOLOGIK TAYYORGARLIGINI SIMULYATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA ILMIY- AMALIY TAVSIYALAR

Niyozova Dilfuza Rustam qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini simulyatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda praksiologik tayyorgarlikning zamonaviy talablari, simulyatsion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari hamda ularni maxsus pedagogika ta'limiga integratsiya qilishning ilmiy asoslari tahlil qilingan. Muallif tomonidan oliy ta'lim muassasalari, professor-o'qituvchilar, talabalar va pedagogik amaliyot rahbarlari uchun tizimlashtirilgan amaliy tavsiyalar taklif etilgan. Shuningdek, tavsiyalarni o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmi hamda kutilayotgan pedagogik natijalar asoslab berilgan. Mazkur tavsiyalar bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini, amaliy faoliyatga tayyorgarligini va korreksion-pedagogik vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: simulyatsion texnologiyalar, oligofrenopedagog, maxsus pedagogika, ilmiy-amaliy tavsiyalar, kasbiy kompetensiya, pedagogik modellashirish, virtual simulyatsiya, refleksiya, korreksion-pedagogik faoliyat.

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПРАКСИОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ОЛИГОФРЕНОПЕДАГОГОВ СРЕДСТВАМИ СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ниезова Дилфуза Рустам кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами,
независимый исследователь.

Аннотация.

В статье разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию прaksiологической подготовки будущих олигофренопедагогов с использованием симуляционных технологий. Рассматриваются современные требования к прaksiологической подготовке, дидактические возможности симуляционных технологий, а также научные основы их интеграции в систему специального педагогического образования. Автор предлагает систематизированные практические рекомендации для высших учебных заведений, профессорско-преподавательского состава, студентов и руководителей педагогической практики. Кроме того, обоснован механизм поэтапного внедрения предложенных рекомендаций в образовательный процесс и определены ожидаемые педагогические результаты. Представленные рекомендации направлены на развитие профессиональной компетентности будущих олигофренопедагогов, повышение их готовности к практической деятельности и формирование навыков принятия эффективных решений в коррекционно-педагогических ситуациях.

Ключевые слова: симуляционные технологии, олигофренопедагог, специальная педагогика, научно-практические рекомендации, профессиональная компетентность, педагогическое моделирование, виртуальная симуляция, рефлексия, коррекционно-педагогическая деятельность.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL RECOMMENDATIONS FOR IMPROVING THE PRAXEOLOGICAL TRAINING OF FUTURE OLIGOPHRENOPEDAGOGUES THROUGH

SIMULATION TECHNOLOGIES

Niyozova Dilfuza Rustam qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.

This article presents scientific and practical recommendations for improving the praxeological training of future oligophrenopedagogues through the use of simulation technologies. The study examines contemporary requirements for praxeological training, the didactic potential of simulation technologies, and the theoretical foundations for their integration into special education programs. The author proposes a systematic set of practical recommendations for higher education institutions, university instructors, students, and supervisors of teaching practice. In addition, the paper substantiates a step-by-step mechanism for implementing these recommendations within the educational process and outlines the expected pedagogical outcomes. The proposed recommendations are intended to enhance future oligophrenopedagogues' professional competence, improve their readiness for practical work, and develop effective decision-making skills in correctional and pedagogical contexts.

Keywords: simulation technologies, oligophrenopedagogue, special education, scientific and practical recommendations, professional competence, pedagogical modeling, virtual simulation, reflection, correctional and pedagogical activity.

Kirish. Bugungi jadallashgan respublikamizda zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayoniga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Intellectual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash yuqori darajadagi nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda, puxta shakllangan praksiologik ko'nikmalarni ham talab etadi. Shu sababli oliy ta'lim tizimida bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'lim texnologiyalari ko'proq nazariy bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, simulyatsion texnologiyalar real kasbiy faoliyatni modellashtirish orqali talabalarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirish imkonini beradi.

Simulyatsion mashg'ulotlar, pedagogik keyslar, rolli o'yinlar, virtual muhit va raqamli simulyatorlar bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini simulyatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish mexanizmlarini asoslashdan iborat. Bunday yondashuv talabalarda amaliy tajribani bosqichma-bosqich shakllantiradi hamda refleksiv fikrlashni rivojlantiradi. Mazkur texnologiyalarni o'quv jarayonida tizimli qo'llash quyidagi natijalarga erishishga xizmat qiladi: nazariya va amaliyot integratsiyasi kuchayadi; kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyasi rivojlanadi; korreksion-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish sifati oshadi; pedagogik refleksiya shakllanadi; amaliy tayyorgarlikning samaradorligi ortadi. Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi zamonaviy maxsus pedagogika va kasbiy ta'lim metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Praksiologik yondashuv pedagogik faoliyatni faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki aniq amaliy harakatlar, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli holatlarda maqbul qarorlar qabul qilish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish, amalga oshirish va refleksiv baholash jarayoni sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak oligofrenopedagogning kasbiy tayyorgarligi maxsus pedagogika, psixologiya va metodika bo'yicha bilimlarni egallash bilangina cheklanmay, ularni real korreksion-pedagogik vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatini ham qamrab olishi lozim.

Pedagogik faoliyatning amaliy yo'nalishini kuchaytirish masalasi kompetensiyaviy yondashuv doirasida ham keng yoritilgan. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi uning bilim, ko'nikma va malakalarini konkret faoliyat sharoitida qo'llay olishi bilan belgilanadi. Ayniqsa, intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan oligofrenopedagogdan vaziyatni tezkor tahlil qilish, bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, korreksion ta'sir usullarini tanlash va ta'limiy vazifalarni moslashtirish talab etiladi. Shu sababli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida amaliy faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Praksiologik tayyorgarlik tushunchasi pedagogik faoliyatning samaradorligi, maqsadga muvofiqligi va amaliy natijadorligi bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur tayyorgarlik tarkibida motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlar muhim o'rin tutadi. Motivatsion komponent kasbiy faoliyatga qiziqish va maxsus pedagogik faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglashni ifodalasa, kognitiv komponent zarur nazariy bilimlarni egallashni nazarda tutadi.

Operatsion-faoliyat komponenti o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, pedagogik harakatlarni rejalashtirish va amalga oshirish bilan bog'liq. Refleksiv komponent esa pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu komponentlarning o'zaro uyg'unligi bo'lajak oligofrenopedagogning amaliy kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Maxsus pedagogika sohasida praksiologik tayyorgarlikning ahamiyati, avvalo, kasbiy faoliyatning murakkab va individual xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda yagona universal metod yoki pedagogik ta'sir usulidan foydalanish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Har bir bolaning bilish faoliyati, nutqiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, emotsional holati va mustaqil faoliyat imkoniyatlari o'ziga xos bo'lishi mumkin. Shuning uchun bo'lajak oligofrenopedagog o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida konkret vaziyatni tahlil qilishi, individual yondashuvni belgilashi va pedagogik qaror qabul qilishi kerak. Mazkur ko'nikmalarni shakllantirishda real kasbiy vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan simulyatsion texnologiyalar katta didaktik imkoniyatlarga ega.

Simulyatsion ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari dastlab tibbiy ta'lim, harbiy tayyorgarlik, aviatsiya va boshqa yuqori darajadagi kasbiy xavfsizlikni talab qiladigan sohalarida keng rivojlangan. D. Gaba simulyatsiyani real hayotdagi muhim jihatlarni takrorlovchi yoki taqlid qiluvchi vaziyatni yaratish orqali tajriba asosida o'qitish imkonini beruvchi pedagogik yondashuv sifatida izohlaydi. Muallif simulyatsiyaning asosiy afzalligi xavfsiz muhitda murakkab kasbiy vaziyatlarni qayta-qayta mashq qilish, xatolarni tahlil qilish va faoliyatni takomillashtirish imkoniyatida ekanligini ta'kidlaydi [1, p. 2–4]. Ushbu yondashuvni maxsus pedagogika ta'limiga tatbiq etish bo'lajak oligofrenopedagoglarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirish uchun muhim metodik asos yaratadi.

Simulyatsion texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rgangan S. Issenberg va hammualliflar simulyatsion mashg'ulotlarning samaradorligi bir qator muhim xususiyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Jumladan, faol ishtirok etish, real kasbiy vaziyatlarga yaqinlik, takroriy mashq qilish imkoniyati, tezkor fikr-mulohaza va debriefing jarayonining mavjudligi ta'lim natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi [2, p. 10–16]. Ushbu fikrlar bo'lajak oligofrenopedagoglarning tayyorgarligi uchun ham muhimdir. Chunki maxsus pedagogik faoliyatda faqat tayyor nazariy ma'lumotni eslab qolish emas, balki pedagogik vaziyatda mustaqil harakat qilish va qabul qilingan qarorning oqibatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

F. Lateef simulyatsiyaga asoslangan ta'limni "real faoliyatga o'xshash, biroq xavfsiz va boshqariladigan sharoitda amalga oshiriladigan o'quv jarayoni" sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, simulyatsion ta'lim talabalarga bilimlarni amaliy harakatlar bilan bog'lash, o'z xatolarini bevosita ko'rish va faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi [3, p. 348–350]. Maxsus pedagogika sharoitida ushbu imkoniyat ayniqsa muhim, chunki bo'lajak mutaxassis real bolalar bilan ishlashdan oldin pedagogik muloqot, diagnostik kuzatuv, individual topshiriqlarni tanlash va korreksion ta'sirni rejalashtirish kabi faoliyatlarni simulyatsion muhitda mashq qilishi mumkin.

Simulyatsion texnologiyalarni boshqaruv va kasbiy ta'lim jarayonida qo'llash masalalarini o'rgangan E. Salas, J. Wildman va R. Piccolo simulyatsiya asosidagi mashg'ulotlar nafaqat individual bilim va ko'nikmalarni, balki kommunikativ hamda qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham rivojlantirishini ta'kidlaydi [4, p. 560–564]. Oligofrenopedagog faoliyatida ham pedagogik jamoa, ota-onalar, psixolog, logoped va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik muhim o'rin tutadi. Shu sababli simulyatsion mashg'ulotlarda faqat "talaba-o'quvchi" munosabatlarini emas, balki turli kasbiy rollar o'rtasidagi hamkorlikni modellashtirish maqsadga muvofiqdir.

Simulyatsion texnologiyalarning muhim shakllaridan biri pedagogik keyslar va vaziyatli modellashtirishdir. Pedagogik keyslar talabalarga aniq kasbiy muammo asosida mustaqil fikrlash, mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash va bir nechta pedagogik yechimlar orasidan maqbul variantni tanlash imkonini beradi. Bo'lajak oligofrenopedagoglarning uchun bunday keyslar bolaning o'quv topshirig'ini bajara olmasligi, kommunikativ qiyinchiliklar, xulq-atvor muammolari, individual ta'lim dasturini ishlab chiqish, ota-onalar bilan pedagogik muloqot va korreksion mashg'ulotni rejalashtirish kabi vaziyatlarga asoslanishi mumkin.

Simulyatsion ta'limning yana bir samarali shakli rolli o'yinlardir. Rolli o'yinlar orqali talaba pedagog, o'quvchi, ota-ona, psixolog yoki boshqa mutaxassis rolini bajarib, turli kasbiy munosabatlarni amaliy jihatdan sinab ko'radi. Bunday mashg'ulotlar kommunikativ kompetensiyani, empatiyani, pedagogik takti va vaziyatga mos ravishda qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ayniqsa, maxsus pedagogika yo'nalishida bo'lajak mutaxassislarning turli pedagogik vaziyatlarda o'zini tutishi, nutqiy muloqot uslubi va bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi alohida ahamiyatga ega.

Simulyatsion mashg'ulotlarning samaradorligida debriefing jarayoni ham muhim o'rin egallaydi. Debriefing davomida talaba bajarilgan faoliyatni qayta ko'rib chiqadi, qabul qilgan qarorlarini asoslaydi, muvaffaqiyatli va muammoli jihatlarni aniqlaydi. Mazkur jarayon refleksiv fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. D. Gaba simulyatsion ta'limning asosiy pedagogik qiymati faqat vaziyatni modellashtirish bilan emas, balki ushbu vaziyatdan keyingi tahliliy muhokama bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi [1, p. 5–7]. Shu sababli bo'lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlashda har bir simulyatsion mashg'ulotdan so'ng "Nima sodir bo'ldi?", "Qanday qaror qabul qilindi?", "Qaysi pedagogik harakat samarali bo'ldi?", "Qanday boshqa yechimlar mavjud edi?" kabi savollar asosida refleksiv tahlil tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi simulyatsion ta'limning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Virtual reallik,

kengaytirilgan reallik, interaktiv platformalar, raqamli keyslar va sun'iy intellekt asosidagi ta'limiy dasturlar talabalarga turli kasbiy vaziyatlarni yanada aniqroq modellashtirish imkonini bermoqda. R. Azuma kengaytirilgan reallik texnologiyasining asosiy xususiyatlarini real muhit va virtual obyektlarning o'zaro integratsiyasi bilan izohlaydi [5, p. 355–358]. Ushbu texnologiyalardan maxsus pedagogika ta'limida foydalanish orqali talaba real o'quv muhitiga o'xshash sharoitda turli pedagogik topshiriqlarni bajarishi mumkin.

M. Slater virtual reallikning ta'limiy imkoniyatlarini, avvalo, foydalanuvchida "ishtirok etish" va "mavjudlik" hissi shakllantirish xususiyati bilan bog'laydi [6, p. 431–433]. Virtual muhit bo'lajak oligofrenopedagogga murakkab pedagogik vaziyatlarni xavfsiz sharoitda boshdan kechirish va ularga javob qaytarish imkonini beradi. Masalan, virtual sinf muhitida o'quvchining topshiriqni bajarishdagi qiyinchiliklari, kommunikativ muammolari yoki individual yordamga ehtiyoji modellashtirilishi mumkin. Talaba esa ushbu vaziyatni tahlil qilib, mos pedagogik strategiyani tanlaydi.

W. Sherman va A. Craig virtual reallik texnologiyalarini o'rganishda immersivlik, interaktivlik va foydalanuvchining virtual muhit bilan faol o'zaro ta'siri muhimligini qayd etadi [7, p. 8–12]. Ushbu xususiyatlar maxsus pedagogika ta'limida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Biroq virtual texnologiyalarni joriy etishda ularni oddiy texnik yangilik sifatida emas, balki aniq didaktik maqsadga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatida qo'llash talab etiladi.

Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi ham alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. UNESCO tomonidan ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda generativ sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarda sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga mas'uliyatli, etik va pedagogik jihatdan asoslangan holda integratsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi [8, p. 7–12]. Bo'lajak oligofrenopedagoglarning tayyorgarligida sun'iy intellekt asosidagi simulyatsion tizimlar individual pedagogik vaziyatlarni yaratish, turli javob variantlarini modellashtirish va talabaning qarorlarini tahlil qilish uchun qo'llanishi mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellekt pedagogning kasbiy qarorini to'liq almashtirmasligi, balki ta'limiy mashq va tahlil vositasi sifatida foydalanilishi lozim.

O'zbekistonda raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati ham simulyatsion texnologiyalarni oliy ta'limga joriy etish uchun muhim tashkiliy asos yaratadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli texnologiyalarni turli sohalarga, jumladan, ta'lim tizimiga keng joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilangan [9]. Bu holat maxsus pedagogika ta'limida virtual simulyatsiyalar, elektron pedagogik vaziyatlar banki va raqamli ta'lim resurslarini yaratish uchun zarur metodik va texnologik imkoniyatlarni kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim jarayonining amaliy yo'nalishini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [10]. Mazkur ustuvor yo'nalishlar bo'lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlashda nazariya va amaliyot birligini ta'minlash, kasbiy kompetensiyalarni amaliy mashg'ulotlar asosida rivojlantirish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish zaruratini belgilaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan virtual reallik texnologiyalarining ta'limdagi didaktik imkoniyatlari ham o'rganilmoqda. Virtual muhitdan foydalanish talabalarining faol ishtirokini ta'minlash, murakkab jarayonlarni vizual modellashtirish, ta'limiy vaziyatlarni takroriy mashq qilish va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi [11, b. 45–49]. Ushbu imkoniyatlar maxsus pedagogika ta'limida ayniqsa muhim bo'lib, bo'lajak oligofrenopedagoglarga korreksion-pedagogik vaziyatlarni amaliy jihatdan o'zlashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, simulyatsion texnologiyalar ta'lim jarayonida bir nechta muhim pedagogik vazifalarni bajaradi. Birinchidan, ular nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi. Ikkinchidan, talabalarni real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi. Uchinchidan, xatolarni xavfsiz sharoitda aniqlash va tuzatish imkonini yaratadi. To'rtinchidan, kasbiy qaror qabul qilish va refleksiv tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi. Beshinchidan, pedagogik faoliyatni individual va guruh shaklida tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligini aynan simulyatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish masalasi hali yetarlicha tizimli ishlab chiqilmaganini ko'rsatadi. Mavjud tadqiqotlarda simulyatsion ta'limning umumiy didaktik imkoniyatlari, virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining ta'limdagi o'rni, shuningdek, simulyatsiya asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Biroq ushbu yondashuvlarni oligofrenopedagoglarni tayyorlashning o'ziga xos mazmuni bilan uyg'unlashtirish, simulyatsion mashg'ulotlarning mazmuni va bosqichlarini belgilash, praktsiologik tayyorgarlik mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish masalalari alohida ilmiy-metodik izlanishni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligini rivojlantirish uchun simulyatsion texnologiyalarni oddiy texnik vosita sifatida emas, balki kasbiy faoliyatni modellashtiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday tizim pedagogik keyslar, rolli o'yinlar, mikrovarsalar, videoanaliz, virtual vaziyatlar, raqamli simulyatorlar va debriefing jarayonlarini o'zaro uyg'unlashtirishi lozim. Mazkur yondashuv bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy vaziyatni tahlil qilish, individual pedagogik qaror qabul qilish, korreksion faoliyatni rejalashtirish va o'z pedagogik harakatlarini refleksiv baholash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini simulyatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish masalasi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va pedagogik modellashirish metodlaridan foydalanildi. Simulyatsion texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari pedagogik keyslar, rolli o'yinlar, mikrodarslar, virtual simulyatsiya va debriefing jarayonlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligi kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik qaror qabul qilish, korreksion faoliyatni rejalashtirish va reflektiv baholash mezonlari asosida ko'rib chiqildi. Aprobatsion yondashuv sifatida simulyatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish mexanizmi ishlab chiqildi.

Natija

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini takomillashtirish uchun, avvalo, maxsus pedagogika ta'lim dasturlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirish zarur. Bunda har bir amaliy fan mazmuniga korreksion-pedagogik vaziyatlar, kasbiy muammolar va real pedagogik faoliyatga yaqinlashtirilgan topshiriqlarni tizimli ravishda kiritish maqsadga muvofiq. Talaba nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, ularni konkret pedagogik vaziyatlarda qo'llash, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, korreksion ta'sir usullarini tanlash va o'z faoliyati natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shu sababli maxsus pedagogika fanlarining amaliy mashg'ulotlarida simulyatsion texnologiyalardan foydalanish praksiologik tayyorgarlikni shakllantirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Pedagogik amaliyot boshlanishidan oldin talabalar uchun majburiy simulyatsion treninglarni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Bunday treninglar davomida talabalar maxsus ta'lim muassasalarida uchrashi mumkin bo'lgan turli korreksion-pedagogik vaziyatlarni oldindan modellashirilgan sharoitda mashq qilishlari mumkin. Masalan, o'quvchining topshiriqni bajarishdan bosh tortishi, o'quv materialini o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelishi, muloqotga kirishishdagi muammolar, individual ta'lim dasturini ishlab chiqish yoki ota-onalar bilan pedagogik muloqot olib borish kabi vaziyatlar simulyatsion mashg'ulotlar mazmuniga kiritilishi mumkin. Bunday tayyorgarlik talabalarining pedagogik amaliyotga psixologik va kasbiy jihatdan tayyorlanishiga, o'ziga bo'lgan ishonchining ortishiga hamda real vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida simulyatsion laboratoriyalar va raqamli ta'lim muhitini bosqichma-bosqich rivojlantirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Simulyatsion laboratoriya talabalarga maxsus pedagogik faoliyatning turli shakllarini modellashirish imkonini beruvchi o'quv muhitini yaratishi kerak. Bunday muhitda virtual o'quvchi, pedagogik keys, mikrodars, videoanaliz, interaktiv topshiriqlar va raqamli simulyatorlardan foydalanish mumkin. Talaba o'zining pedagogik harakatlarini video orqali tahlil qilishi, boshqa talabalar va professor-o'qituvchilarning fikrlarini olishi hamda o'z faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashi mumkin. Shu jihatdan simulyatsion laboratoriyalar nafaqat texnik vositalar majmui, balki nazariya, amaliyot va refleksiyaning birlashtiruvchi pedagogik muhit sifatida tashkil etilishi lozim.

Maxsus ta'lim muassasalari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Simulyatsion mashg'ulotlar real korreksion-pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilishi kerak. Bunda maxsus maktablar, inklyuziv ta'lim muassasalari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida metodik hamkorlik yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq. Tajribali oligofrenopedagoglarni mentor sifatida jalb etish orqali talabalar real kasbiy tajribaga ega bo'lishlari, amaliy faoliyatning o'ziga xos jihatlarini kuzatishlari va kasbiy vaziyatlar bo'yicha maslahatlar olishlari mumkin.

Bunday hamkorlik doirasida talabalarni individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jarayoniga ham bevosita jalb etish muhimdir. Talaba bolaning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, uning ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash, qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni belgilash hamda tegishli pedagogik metodlarni tanlash jarayonida faol ishtirok etishi lozim. Ushbu faoliyat bo'lajak mutaxassisning diagnostik, loyihalash, tashkil etish va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim tizimi miqyosida bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini baholashning yagona mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish zarur. Bunda baholash faqat talabaning nazariy bilimlarini aniqlash bilan cheklanmasligi kerak. Talabaning korreksion-pedagogik vaziyatni tahlil qilishi, pedagogik qaror qabul qilishi, individual yondashuvni tanlashi, korreksion faoliyatni rejalashtirishi va o'z pedagogik faoliyatini reflektiv baholashi ham kompleks tarzda baholanishi lozim. Shu asosda praksiologik tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va reflektiv komponentlari bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilishi mumkin.

Simulyatsion texnologiyalarni davlat ta'lim standartlari va ta'lim dasturlari bilan integratsiya qilish ham muhim vazifalardan biridir. Simulyatsion mashg'ulotlar o'quv jarayonining qo'shimcha yoki epizodik elementi sifatida emas, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning tizimli vositasi sifatida qaralishi kerak. Buning uchun maxsus pedagogika yo'nalishlarining o'quv rejalari va fan dasturlarida simulyatsion mashg'ulotlarning mazmuni, maqsadi, shakllari va baholash mezonlarini aniq belgilash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari huzurida maxsus pedagogika yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan simulyatsion markazlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu markazlarda pedagogik keyslar, elektron vaziyatlar banki, videomateriallar, virtual o'quv muhitlari va interaktiv raqamli resurslar jamlanishi mumkin. Elektron pedagogik

vaziyatlar bankida turli darajadagi murakkablikka ega bo'lgan kasbiy vaziyatlar, ularning tavsifi, muammoli jihatlari, topshiriqlari va baholash mezonlari shakllantiriladi. Bu esa professor-o'qituvchilarga mashg'ulotlarni tizimli tashkil etish, talabalarga esa turli kasbiy vaziyatlarni mustaqil ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

Simulyatsion texnologiyalar bo'yicha milliy metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish ham dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur qo'llanmalarda maxsus pedagogika ta'limida simulyatsion mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi, pedagogik keyslarni ishlab chiqish, rolli o'yinlarni tashkil etish, mikrodarslarni baholash, videoanaliz va debriefingni o'tkazish tartibi yoritilishi lozim. Ayniqsa, oligofrenopedagoglarni tayyorlashga moslashtirilgan metodik tavsiyalar professor-o'qituvchilar uchun amaliy yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy tavsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Birinchi bosqichda mavjud o'quv dasturlari va fanlarning amaliy mazmuni tahlil qilinadi. Ushbu tahlil asosida qaysi fanlar va mavzularda simulyatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyati mavjudligi aniqlanadi. Keyingi bosqichda professor-o'qituvchilar simulyatsion texnologiyalarni tashkil etish metodikasi bo'yicha tayyorlanadi. Uchinchi bosqichda simulyatsion mashg'ulotlar muntazam ravishda o'quv jarayoniga kiritiladi. To'rtinchi bosqichda talabalarning praksiologik tayyorgarligi belgilangan mezon va indikatorlar asosida monitoring qilinadi. Yakuniy bosqichda olingan natijalar tahlil qilinib, metodika va o'quv jarayonining tegishli jihatlari tuzatishlar kiritiladi.

Mazkur mexanizm ta'lim jarayonida simulyatsion texnologiyalarni tasodifiy yoki bir martalik tarzda emas, balki izchil va tizimli ravishda qo'llash imkonini beradi. Har bir bosqich aniq maqsad va kutilayotgan natijalar bilan bog'lanishi lozim. Bunda talabaning oddiy pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishdan murakkab korreksion-pedagogik muammolarni mustaqil hal qilish darajasigacha bo'lgan rivojlanish dinamikasi hisobga olinadi.

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini rivojlantirish uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Simulyatsion texnologiyalar faqat ayrim mavzular doirasida emas, balki maxsus pedagogika fanlarining amaliy mashg'ulotlariga tizimli ravishda integratsiya qilinishi maqsadga muvofiq. Har bir mashg'ulot real korreksion-pedagogik vaziyat, pedagogik keys yoki kasbiy muammo asosida loyihalashtirilishi kerak. Bu yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash va kasbiy vaziyatlarda mustaqil harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Simulyatsion mashg'ulotlardan keyin debriefing jarayonini tashkil etish ham majburiy metodik element sifatida qaralishi lozim. Debriefing jarayonida talabalarning muvaffaqiyatlari, yo'l qo'ygan xatolari, qabul qilgan qarorlari va muqobil yechimlari tahlil qilinadi. Bunday tahlil talabaning o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishini, pedagogik harakatlarining natijasini anglashini va keyingi faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashini ta'minlaydi. Shunday qilib, simulyatsiya va refleksiya o'zaro uzviy bog'langan yagona pedagogik jarayonni tashkil etadi.

Kelajakda sun'iy intellekt, virtual reallik va kengaytirilgan reallik elementlarini maxsus pedagogika ta'limiga bosqichma-bosqich joriy etish ham muhim istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Ushbu texnologiyalar murakkab korreksion-pedagogik vaziyatlarni xavfsiz sharoitda qayta-qayta mashq qilish imkonini beradi. Biroq ularni joriy etishda texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda, pedagogik maqsad, etik talablar, ta'lim mazmuni va talabaning individual ehtiyojlari ham hisobga olinishi lozim.

Simulyatsion texnologiyalar bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularning tizimli qo'llanilishi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, kasbiy vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish, korreksion faoliyatni rejalashtirish va refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar oliy ta'lim muassasalari, professor-o'qituvchilar, pedagogik amaliyot rahbarlari va maxsus ta'lim tashkilotlari faoliyatida qo'llanishi mumkin. Tavsiyalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish, kasbiy moslashuvini yengillashtirish va maxsus ta'lim tizimida korreksion-pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama

Bo'lajak oligofrenopedagog uchun bu tayyorgarlik korreksion-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, individual ta'lim yo'nalishini ishlab chiqish, samarali metodlarni tanlash, o'quvchi rivojlanishini monitoring qilish va o'z faoliyatini refleksiv baholash kabi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatadiki, talabalarda nazariy bilimlar yetarli darajada shakllansa-da, ularni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari hamisha ham yuqori darajada rivojlanmaydi. Natijada yosh mutaxassislar kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichlarida qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etishda simulyatsion texnologiyalar nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Simulyatsion texnologiyalarning praksiologik tayyorgarlikni rivojlantirishdagi **imkoniyatlari** juda muhim. Simulyatsion texnologiyalar bo'lajak oligofrenopedagoglarga xavfsiz o'quv muhitida real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik qarorlar qabul qilish va xatolarni tahlil qilish imkonini beradi.

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning praksiologik tayyorgarligini simulyatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish masalasi zamonaviy maxsus pedagogika ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Olib borilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ayniqsa, intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan

ishlaydigan oligofrenopedagogdan murakkab korreksion-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, pedagogik ta'sir usullarini tanlash va muayyan vaziyatda mustaqil qaror qabul qilish kabi amaliy ko'nikmalar talab etiladi.

Simulyatsion texnologiyalarning asosiy afzalligi shundaki, ular talabalarga real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda amaliy harakatlarni bajarish imkonini beradi. An'anaviy ta'lim jarayonida talaba ko'pincha nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, biroq ularni real pedagogik vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Simulyatsion mashg'ulotlarda esa pedagogik keyslar, rolli o'yinlar, mikrodarslar, virtual vaziyatlar va videoanaliz vositasida talaba kasbiy faoliyatning muayyan elementlarini bevosita bajaradi. Bu esa nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmaga aylanish jarayonini tezlashtiradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, simulyatsion texnologiyalardan foydalanish bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligining bir nechta tarkibiy qismlarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Xususan, motivatsion komponent kasbiy faoliyatga qiziqish va maxsus pedagogik kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglash orqali rivojlanadi. Kognitiv komponent pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash jarayonida takomillashadi. Operatsion-faoliyat komponenti pedagogik qarorlar qabul qilish, korreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish va turli pedagogik harakatlarni bajarish orqali shakllanadi. Refleksiv komponent esa simulyatsion mashg'ulotlardan keyingi debriefing va videoanaliz jarayonida rivojlanadi.

Simulyatsion texnologiyalarning muhim jihatlardan biri xatolarni xavfsiz o'quv muhitida aniqlash va tuzatish imkoniyatidir. Real maxsus ta'lim muassasasida tajribasiz talabaning noto'g'ri pedagogik qarori bolaning ta'lim jarayoni yoki psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Simulyatsion muhitda esa talaba xato qilish, xatoni tahlil qilish va boshqa yechimni sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon kasbiy tajribaning shakllanishiga xizmat qiladi va talabani real pedagogik faoliyatga tayyorlaydi.

Pedagogik keyslar va vaziyatli topshiriqlar bo'lajak oligofrenopedagoglarning muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Korreksion-pedagogik faoliyatda ko'plab vaziyatlar oldindan tayyorlangan metodik sxema asosida hal qilinmaydi. Har bir bolaning rivojlanish darajasi, bilish faoliyati, xulq-atvori va individual ta'lim ehtiyojlari turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli bo'lajak mutaxassis tayyor algoritmi takrorlash bilan cheklanmasdan, vaziyatni mustaqil tahlil qilishi va eng maqbul pedagogik yechimni tanlashi lozim. Simulyatsion keyslar aynan mana shu kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi.

Rolli o'yinlar ham bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Talabaning pedagog, o'quvchi, ota-ona yoki boshqa mutaxassis rolini bajarishi turli nuqtayi nazarlarni tushunish imkonini beradi. Bu esa pedagogik muloqot, empatiya, pedagogik takt va kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ota-onalar bilan muloqot qilish, bolaning rivojlanishidagi muammolarni tushuntirish va individual ta'lim yo'nalishini muhokama qilish kabi vaziyatlarni oldindan simulyatsiya qilish bo'lajak mutaxassisning amaliy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Muhokama jarayonida simulyatsion texnologiyalarning samaradorligi faqat mashg'ulotning o'zi bilan emas, balki undan keyingi refleksiv tahlil bilan ham bog'liqligi aniqlandi. Talaba o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqish, qabul qilgan qarorlarining sabablarini tushuntirish, xatolarini aniqlash va muqobil yechimlarni izlash orqali kasbiy refleksiyani rivojlantiradi. Shu sababli debriefing simulyatsion mashg'ulotning ajralmas qismi sifatida tashkil etilishi lozim. Debriefing jarayonida professor-o'qituvchi tayyor baho beruvchi emas, balki talabani mustaqil tahlilga yo'naltiruvchi moderator vazifasini bajarishi maqsadga muvofiq.

Simulyatsion texnologiyalarni raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish ham bo'lajak oligofrenopedagoglarning amaliy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Virtual reallik, kengaytirilgan reallik, sun'iy intellekt asosidagi interaktiv vaziyatlar va raqamli pedagogik platformalar orqali murakkab kasbiy holatlarni modellashtirish imkoniyati kengayadi. Bunday texnologiyalar yordamida talaba bir xil pedagogik vaziyatni turli variantlarda qayta bajarishi, qabul qilgan qarorlarini taqqoslashi va o'z faoliyatining natijalarini tahlil qilishi mumkin. Biroq raqamli texnologiyalardan foydalanish pedagogik maqsadga muvofiq tashkil etilishi, texnologiya ta'lim mazmunini almashtirmasligi, balki uni boyitishi lozim.

Shuningdek, simulyatsion texnologiyalarning samaradorligi ularni ta'lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish bilan bog'liq. Agar simulyatsiya faqat ayrim mavzularda yoki bir martalik mashg'ulot sifatida qo'llansa, uning praktsiologik tayyorgarlikka ta'siri cheklangan bo'lishi mumkin. Shu sababli simulyatsion mashg'ulotlarni maxsus pedagogika fanlarining amaliy mazmuni bilan uzviy bog'lash, talabalar tayyorgarligining turli bosqichlarida murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish zarur. Dastlab oddiy pedagogik vaziyatlar modellashtirilsa, keyingi bosqichlarda bir nechta muammoni o'z ichiga olgan murakkab korreksion-pedagogik holatlardan foydalanish mumkin.

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari va maxsus ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Simulyatsion mashg'ulotlarning mazmuni real maxsus maktablar va inklyuziv ta'lim muassasalarida uchraydigan kasbiy vaziyatlar asosida ishlab chiqilsa, uning amaliy qiymati yanada ortadi. Tajribali oligofrenopedagoglarning mentor sifatida jalb etilishi talabalar uchun real kasbiy tajribani o'zlashtirish va simulyatsion vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni amaliy tajriba bilan taqqoslash imkonini beradi.

Shu bilan birga, simulyatsion texnologiyalarni maxsus pedagogika ta'limiga joriy etishda muayyan tashkiliy va

metodik muammolar ham mavjud. Jumladan, simulyatsion laboratoriyalarni tashkil etish uchun zarur texnik imkoniyatlarning cheklanganligi, professor-o'qituvchilarning simulyatsion metodikalarni qo'llash bo'yicha tayyorgarligi yetarli emasligi, maxsus pedagogik vaziyatlar bankining to'liq shakllantirilmaganligi kabi omillar ta'lim samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli simulyatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, avvalo, metodik ta'minot, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish va baholash mezonlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratilishi lozim.

Praksiologik tayyorgarlikni baholashda faqat nazariy bilimlarga tayanish bo'lajak mutaxassisning real kasbiy imkoniyatlarini to'liq aks ettirmaydi. Talabani pedagogik vaziyatni tahlil qilish, bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash, mos metodni tanlash, korreksion faoliyatni rejalashtirish va o'z faoliyatini refleksiv baholash qobiliyatlari ham hisobga olinishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, simulyatsion mashg'ulotlar praktsiologik tayyorgarlikni kompleks baholash uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Umuman olganda, simulyatsion texnologiyalar bo'lajak oligofrenopedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash, kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, xatolarni tahlil qilish va pedagogik refleksiyani rivojlantirish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida baholanishi mumkin. Ularni pedagogik keyslar, rolli o'yinlar, mikrodarlar, videoanaliz, virtual simulyatsiyalar va debriefing bilan birgalikda qo'llash praktsiologik tayyorgarlikning yaxlit tizimini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish uchun ularni o'quv dasturlariga tizimli integratsiya qilish, professor-o'qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlash, maxsus simulyatsion markazlar va elektron pedagogik vaziyatlar bankini yaratish zarur.

Simulyatsion texnologiyalarning bo'lajak oligofrenopedagoglar tayyorgarligidagi samaradorligini yanada chuqurroq aniqlash uchun kelgusida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, praktsiologik tayyorgarlikning aniq mezon va indikatorlarini ishlab chiqish, tajriba-sinov natijalarini statistik jihatdan tahlil qilish hamda sun'iy intellekt asosidagi simulyatsion platformalarning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Xulosa

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligini simulyatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish maxsus pedagogika ta'limining amaliy yo'nalishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Simulyatsion texnologiyalar orqali talabalar real korreksion-pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirilgan sharoitda kasbiy muammolarni tahlil qilish, pedagogik qarorlar qabul qilish, individual ta'lim yondashuvlarini belgilash va korreksion faoliyatni rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik keyslar, rolli o'yinlar, mikrodarlar, virtual simulyatsiyalar, videoanaliz va debriefing kabi texnologiyalarning tizimli qo'llanilishi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, simulyatsion muhitda xatolarni xavfsiz tarzda aniqlash va tahlil qilish, turli pedagogik yechimlarni sinab ko'rish hamda o'z faoliyatini refleksiv baholash bo'lajak oligofrenopedagogning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Simulyatsion texnologiyalarni maxsus pedagogika fanlarining amaliy mashg'ulotlariga bosqichma-bosqich va tizimli ravishda integratsiya qilish, pedagogik amaliyotdan oldin simulyatsion treninglarni tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari va maxsus ta'lim tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish muhim pedagogik shartlar hisoblanadi. Shuningdek, maxsus pedagogika yo'nalishida simulyatsion markazlar, elektron pedagogik vaziyatlar banki va zamonaviy raqamli ta'lim resurslarini yaratish bo'lajak mutaxassislarning amaliy tayyorgarligini yanada takomillashtiradi.

Praksiologik tayyorgarlikni baholashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, kasbiy qaror qabul qilish, korreksion faoliyatni loyihalash va refleksiv tahlil ko'nikmalarini ham hisobga olish zarur. Shu asosda tashkil etilgan simulyatsion ta'lim bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, amaliy faoliyatga moslashuvini yengillashtirish va maxsus ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida simulyatsion texnologiyalarning samaradorligini tajriba-sinov asosida tekshirish, ularning pedagogik imkoniyatlarini statistik mezonlar orqali baholash, shuningdek, sun'iy intellekt, virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini maxsus pedagogika ta'limiga integratsiya qilish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gaba D. M. The Future Vision of Simulation in Health Care // Quality and Safety in Health Care. – 2004. – Vol. 13, Suppl. 1. – P. i2–i10.
2. Issenberg S. B., McGaghie W. C., Petrusa E. R., Gordon D. L., Scalese R. J. Features and Uses of High-Fidelity Medical Simulations That Lead to Effective Learning: A BEME Systematic Review // Medical Teacher. – 2005. – Vol. 27, No. 1. – P. 10–28.
3. Lateef F. Simulation-Based Learning: Just Like the Real Thing // Journal of Emergencies, Trauma, and Shock. – 2010. – Vol. 3, No. 4. – P. 348–352.
4. Salas E., Wildman J. L., Piccolo R. F. Using Simulation-Based Training to Enhance Management Education // Academy of Management Learning & Education. – 2009. – Vol. 8, No. 4. – P. 559–573.
5. Azuma R. T. A Survey of Augmented Reality // Presence: Teleoperators and Virtual Environments. – 1997. – Vol. 6, No. 4. – P. 355–385.
6. Slater M. Immersion and the Illusion of Presence in Virtual Reality // British Journal of Psychology. – 2018. –

Vol. 109, No. 3. – P. 431–433.

7. Sherman W. R., Craig A. B. Understanding Virtual Reality: Interface, Application, and Design. – Burlington, MA: Morgan Kaufmann, 2019. – 938 p.
8. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni. – 2020-yil 5-oktabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *"2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"*gi PF-60-son Farmoni. – 2022-yil 28-yanvar.
11. Abdurasulova N., Karimov S. Virtual reallik texnologiyalarining ta'limdagi didaktik imkoniyatlari // Research and Implementation.